

TALABALARGA CHIZMACHILIK DARSIDA “KESIMLAR” MAVZUSINI MUSTAQIL O‘ZLASHTIRISHIDA METODIK TAVSIYALAR

Gulomova Nozima Xotamovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

«Muhandislik va kompyuter grafikasi» kafedrası dotsenti

gulomova.nozima@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada chizmalarni chizish va ularni turli usullar bilan o‘qish hamda ularga didaktiv yondashish, talabalarning chizmachilikdan olayotgan bilim, ko‘nikmalarini tekshirish, dars jarayonida ularning faolligini oshirish maqsadida o‘qitishda foydalanish metodlari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

АННОТАЦИЯ

Данная статья включает в себя обучения предмета черчения. А также к чертежам, проверку знаний и навыков, обучающихся по предмету черчения, даются методические рекомендации по методике использования методов обучения в целях повышения активности учащихся во время занятий по предмету черчение.

ANNOTATION

This article includes teaching the subject of drawing. As well as to the drawings, testing the knowledge and skills of students in the subject of drawing, methodological recommendations are given on the methodology for using teaching methods in order to increase the activity of students during classes on the subject of drawing.

Kalit so‘zlar: chizmachilik, shakl, konstruksiya, yorug‘-soya, tatbiq etish, uzluksizlik, samaradorlik, grafik savodxonlik.

Ключевые слова: черчение, форма, конструкция, светотень, внедрение, приемственность, эффективность, графическая грамотность

Key words: graphic arts, drawing, space, the form, design, introduction, receivership, efficiency, graphic literacy.

Ma‘lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur‘atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma‘lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va

malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabani mustaqil ishi - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.


O'qishning boshlang'ich bosqichlarida talabani mustaqil ishini tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limining navbatdagi turi – oliy ta'lim talablariga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.¹

Kesim deb buyumni bitta yoki bir nechta tekislik bilan fikran kesilishidan hosil bo'lgan shaklning tasviriga aytiladi. Kesuvchi tekisliklarning normal ko'ndalang kesimlar hosil bo'ladigan qilib tanlash lozim bo'ladi.


Qirqimdan farqli o'laroq kesimda bevosita kesuvchi tekislikda yotgan narsalar tasvirlanib, uning orqasida joylashgan barcha narsalar ko'rsatilmaydi.

1-shaklda kesim bilan qirqimning farqi yaqqol ko'rsatilgan. Kesimlar asosan buyumning alohida elementlarining shaklini aniqlashda qo'llaniladi. Masalan, richagning chizmasida (2-shakl, a) bosh ko'rinish va ikkita mahalliy qirqim bajarilgan ustadan ko'rinish, uning o'rta qismining shaklini aniqlab berolmaydi. Bu shaklni profil qirqimda aniqlash mumkin (2-shakl, b). Lekin chizmadan ko'rinib turibdiki, kesuvchi tekislik orqasida yotgan barcha narsalar tasvirga hech qanday aniqlik yaqqollik kiritmay, balki ortiqchalik qilmoqda. Shuning uchun bu yerda profil qirqimning o'rniga faqat kesim bilan (2-shakl, d) kifoyalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu misoldan chizma bagarishda kerakli joylarda kesimlar qo'llanilsa grafik ishlarning soddalashishi va qisqarishi ko'rinib turadi.

¹N.X.Gulomova "Kesimlar va tekis qirqim chiziqlari" metodik qo'llanma –T.: TДПУ, 2012yil 4-bet




1-shakl



2-shakl

Buyumning kesilishidan hosil bo‘ladigan kesim shakllariga qarab kesimlarni simmetrik (3-shakl) va nosimmetrik (6-7-shakllar va 8-shakl B-B) kesimlarga bo‘lish mumkin².


² N.X.Gulomova “Kesimlar va tekis qirqim chiziqlari” metodik qo‘llanma –T.: TDIIV, 2012yil 7-bet



Kesimlar chizmada joylashishiga qarab ustma-ust qo'yilgan va chetga chiqarilgan kesimlarga bo'linadi. Ustma-ust qo'yilgan kesimlar bevosita buyum ko'rinishining ustda bajariladi (4-shakl). Chetga chiqarilgan kesimlarni esa chizma qog'ozining istalgan bo'sh joyiga (2-shakl, d), yoki buyum ko'rinishining uzilgan joyiga joylashtirish mumkin. Chetga chiqarilgan simmetrik kesim tasvirga yaqin joyda joylashib, uning simmetrik o'qi kesuvchi tekislikning vaziyati bilan ustma-ust tushishi va tasvir konturini kesib o'tishi kerak (3-shakl). Ko'pincha chiqarilgan kesimlardan foydalanish tavsiya etiladi.


Chetga chiqarilgan kesim konturi asosiy tutash chiziq bilan tasvirlanadi. Ustma-ust qo'yilgan kesim konturi ingichka tutash chiziq bilan tasvirlanib, kesim bajarilgan joyda buyum tasviri uzilmaydi (4-shakl va 6-shakl).

Chetga chiqarilgan simmetrik (3-shakl) hamda ustma-ust qo'yilgan (4-shakl) kesimlarni bajarishda kesuvchi tekisliklarning vaziyati ko'rsatilmaydi.



4-shakl

5-shakl




6-shakl

7-shakl

Tasvir bilan ustma-ust qo'yilgan yoki tasvirning uzilgan joyida bajarilgan kesimlarda kesuvchi tekisliklarning vaziyati, ularning boshlanishi va oxiridagi uziq chiziqlariga qarash yo'nalishini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar (strelkalar) qo'yib ko'rsatiladi, lekin harflar bilan belgilanmaydi (4 va 5-shakllar)³.

Kesim bajarishdagi boshqa barcha hollarda kesuvchi tekisliklarning vaziyatlari qarash yo'nalishini ko'rsatadigan ko'rsatkichli chiziqlar bilan ko'rsatilgan bo'lib, kesim ustida tegishli yozuvi bo'lishi kerak (8-shakl).



8-shakl

Har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, metodik tavsiyalarni berib ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi.

³ N.X.Gulomova "Kesimlar va tekis qirqim chiziqlari" metodik qo'llanma –T.: TDIIV, 2012yil 9-bet

ADABIYOTLAR

1. I. Rahmonov, va Abdurahmonov A. Chizmachilikdan ma'lumotnoma. T. "A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi". 2005.
2. N. X. Gulomova, D. A. Yuldasheva Chizmachilik (umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun metodik qo'llanma) –T.: "ZUXRA BARAKA 2017
3. N. X. Gulomova "Kesimlar va tekis qirqim chiziqlari" metodik qo'llanma –T.: ТДПУ, 2012yil
4. Saydaliyev, S. S., & Gulomova, N. K. (2015). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI SIFAT VA SAMARADORLIGINING OSHIRISH. FORMATION A CULTURE OF INDEPENDENT THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS, 161.
5. Gulomova, N., Abdusalomova, X., & Abdusalomova, M. (2021). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA AMALIY SAN'AT TA'LIMINING O'RNI VA AHAMIYATI. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-01.10.2021.v2.33>
6. Xadicha G'ayratjon Qizi Abdusalomova, & Nozima Xotamovna Gulomova (2021). SAN'AT VA MADANIYAT SAHOSIDAGI ISLOHOTLAR BILAN ERTANGI KUNGA YANGICHA NAZAR. Scientific progress, 2 (2), 663-669.
7. Gulomova, N. (2021). "Uzatmalar" mavzusini o'qitishda "iSpring Quiz Maker" dasturidan foydalanib, talabalarga nostandart testlar orqali bilish faolligini faollashtirish. Жамият ва инновациялар, 2(5), 8–18. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp8-18>
8. Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos yo'nalish. Жамият ва инновациялар, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
9. Валиев, А. Н., Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению. Молодой ученый, (3), 183-184.
10. Saydaliyev, Saidkarim Saydnabiyevich, & Gulomova, Nozima Xotamovna (2021). DAVLAT STANDARTI ASOSIDA CHIZMALARNI TAXT QILISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 734-745. doi: 10.24412/2181-1784-2021-10-734-745
11. Saydaliyev, S., & Gulomova, N. (2019). Development of Spatial Thinking of Students Based on the Traditions of Eastern Architecture. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 14(2), 210-214.
12. Gulomova, N., & Saidaliyev, S. (2020). Development of Emergency Image in Students Psychological-Pedagogical Problems. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 18(2), 181-186.

13. Gulomova, N. (2021). CHIZMA GEOMETRIYA, CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARGA TESTLAR ORQALI ULARNING BILIMINI ANIQLASH. GRAAL' NAUKI, (4), 404-408. <https://doi.org/10.36074/grail-of-science.07.05.2021.075>

14. Саидалиев, С. С., Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Методы эффективного использования законов перспективы при обучении изобразительному искусству. Молодой ученый, (7), 462-469.

15. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2016). AutoCAD ЧИЗМА ДАСТУРИ ОРҚАЛИ ЧИЗМАЧИЛИКНИ ЎҚИТИШ ВА УЛАРНИНГ ИСТИҚБОЛИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 32(3), 53–55. извлечено от <https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/851>

16. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 212-214.

17. А.Н.Валиев, Д.Ж.Туланова, Н.Х.Гуломова, Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению // Молодой ученый 2018. №3. С. 183-189 стр.